

Manzura O'teniyazova Azatbay qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistka fakultetining Noshirlik ishi talabasi

Orazbaeva Nilufar Daryabay qizi

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining Boshlang'ich ta'lim fakultetining Boshlang'ich ta'lim jo'naliishi talabasi

Shakhnozabonu Baltaniyazova

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistka fakultetining jurnalistika yo'naliishi talabasi

Annotatsiya: Maqola hozirgi kunda noshirlik faoliyatida bo'layotgan o'zgarishlar va qarorlar to'risida. Asosan 2021-yili mart oyining ikkinchi sanasida shop etilgan "Noshirlik foliyatida qanday o'zgarishlar bo'ldi?" nomli maqola va shu yo'sinda yozilgan maqolalar bilan ham tanishib chiqishingiz mumkin.

Annotation: The article is about the changes and decisions taking place in the publishing activity today. "What changes have happened in the publishing industry?" You can also familiarize yourself with the article and articles written in this regard.

Аннотация: В статье речь идет об изменениях и решениях, происходящих сегодня в издательской деятельности. «Какие изменения произошли в издательской индустрии?» Вы также можете ознакомиться со статьей и статьями, написанными по этому поводу.

Rezume: Özbekistanda Baspa isi tarawinda júz berip atirǵan waqiyalardan jaslardı xabardar qılıw hám olardıń buǵan múnasibetin úyrenip shıǵıw.

Rezume: O'zbekistonda Noshirlik ishi yo'naliishida bo'layotgan voqealarni yoshlar bilan baham ko'rish va ularning bu haqida munosabatini o'rganib chiqish.

Резюме: Поделиться с молодежью тем, что происходит в сфере издательского дела в Узбекистане и изучить их отношение к этому.

Summary: To share with young people what is happening in the field of publishing in Uzbekistan and to study their attitude about it.

Kalit so'zlar: 18 ta modda, Qonun loyihasi, 34 modda, "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi qonun, Noshirlik ishi, O'zbekiston matbuoti.

Ключевые слова: 18 статей, Законопроект, 34 статьи, Закон «Об издательской деятельности», Издательская деятельность, пресса Узбекистана.

Key words: 18 articles, Draft Law, 34 articles, Law "On Publishing Activities", Publishing work, press of Uzbekistan.

2020-yil 16-martda "Noshirlik va matbaa sohasini yana-da rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga asosan noshirlik faoliyati uchun litsenziya bekor qilingan edi.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

VOLUME-2, ISSUE-14 (26-January)

Bugun Vazirlar Mahkamasi tomonidan Noshirlik va matbaa faoliyatini boshlagani haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish tartibi to'g'risidagi nizomlar tasdiqlandi.

Unga ko'ra, joriy yil 1-iyuldan boshlab noshirlik faoliyati uchun litsenziya, matbaa faoliyati uchun ruxsatnoma talab etilmaydi.

Endilikda tadbirkor noshirlik yoki matbaa faoliyatini boshlaganidan keyin 10 kun ichida Davlat xizmatlari markazlari (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı) orqali Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga xabarnoma yuborishi kifoya.

Xabarnoma yuborilganidan keyin 1 ish kunida tasdiqnoma elektron ko'rinishda xabardor qiluvchiga yetkaziladi.

Shu bilan birga, noshirlik va matbaa sohasida amaldagi qonunchilik talablariga rioya etish talab etiladi.

Joriy yilning 16-mart kuni "Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Bu haqda Adliya vazirligi Matbuot ximzati xabar berdi.

Qarorga muvofiq, 2020-yil 1-oktabrdan boshlab darsliklar va o'quv-metodik majmualarni nashr etishda narxlar davlat tomonidan tartibga solinishi bekor qilinadi.

Shuningdek, 2020-yilning 1-iyulidan boshlab noshirlik faoliyatini litsenziyalash hamda matbaa faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish tartiblari bekor qilinadi, noshirlik va matbaa faoliyatini boshlaganlik haqida vakolatli organni xabardor etish tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, 2021-yil 1-yanvardan boshlab bosma mahsulotlarni sotishdan, shuningdek bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq tahrir, matbaa va noshirlik xizmatlari ko'rsatishdan tushgan tushumdan "Ijod" fondiga ajratmalar bekor qilinadi.

Qarorga ko'ra, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi", "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" va "O'qituvchi" matbaa uyi" davlat korxonalari xususiyashtirish uchun Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkaziladi.

Shuningdek, "Ko'zi ojizlar bosmaxonasi" davlat korxonasi ushbu agentlikka samarali foydalanish uchun o'tkaziladi.

"O'qituvchi" ilmiy-metodik nashriyot markazi" davlat korxonasi va Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining hududiy bo'linmalari tizimidagi (Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashqari) nashriyotlar faoliyati tugatiladi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tizimida "O'zbekiston nashriyoti" davlat korxonasi tashkil etiladi, unga "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" va "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti" davlat korxonalari qo'shib olinadi.

O'zbekistonda «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi Prezident «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi qonunni imzoladi. Unga ko'ra, noshirlik faoliyati sub'ektlari o'z faoliyatida mustaqil bo'ladi. Nashrga tayyorlangan qo'lyozmalarni va materiallarni tsenzuradan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning sha'ni va qadr-

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH **VOLUME-2, ISSUE-14 (26-January)**

qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi, mazmuniga ko'ra ularning shaxsiy hayotiga aralashuv deb qaralishi mumkin bo'lgan nashrlarni hamda noshirlilik mahsulotini chiqarish va tarqatish taqiqlanadi.

Noshirlilik faoliyati sohasi Vazirlar Mahkamasi va Prezident administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan tartibga solinadi. Qonunga ko'ra, noshirlilik faoliyatining sub'ektlari quyidagilardan iborat:

- Nashriyot;
- Tayyorlovchi;
- Buyurtmachi;
- Tarqatuvchi.

Noshirlilik faoliyati xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi. Quyidagi hollarda xabardor qilish tartib-taomillaridan o'tish talab etilmaydi:

Davlat organlari, markaziy muassasalar, sudlar, prokuratura organlari tomonidan rasmiy materiallar, normativ-huquqiy hujjat to'plamlarini nashr etishda;

Respublika ahamiyatiga ega nodavlat va notijorat tashkilotlari, shuningdek, tashkilotlar, ta'lif va ilmiy muassasalar tomonidan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan, ommaviy ravishda tarqatish yoki qo'lyozma huquqi asosida ko'paytirish uchun mo'ljallanmagan materiallarni nashr etishda;

Ommaviy axborot vositalari ushbu OAV tahririylari tomonidan chop etilganda. Noshirlilik mahsulotlari tarqatuvchi tomonidan shartnomalar asosida tarqatiladi. Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Avvalroq Senat yalpi majlisida «Noshirlilik faoliyati to'g'risida»gi qonun ma'qullangani xabar qilingandi. Shuningdek, Markaziy Osiyoda so'z erkinligi bo'yicha ko'rsatkichlar tahlil qilingandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Xalq so'zi" gazetasi 2020-yim 23-iyun. Noshirlilik faoliyati uchun endi litsenziya talab qilinmaydi.
2. Arxiv "Noshirlilik faoliyati bilan bog'liq Prezident qarori qabul qilindi. 2020-yil 17-mart.
3. <https://bugun.uz> O'zbekistonda "Noshirlilik faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi
4. "Yangi O'zbekiston" gazetasi – Noshirlilik foliyatida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Axborot-resurs markazi "Noshirlilik zamonaviy rivojlangan sohadir" nomli maqolasi
7. <https://shosh.uz.Toshkentda.noshirlik>
8. <https://hozir.org.Qidir.Noshirlik.vikapediya.org>.
9. <https://lex.uz.Kitob.mahsulotlarini.nashir.etish.va.tarqatish.ishlarini.rivojlantrish>
10. <https://e-library.namdu.uz.Nashir.jarayoni.asosiy.bosqichlari>.